

**“ZAMONAVIY TEATRDA YOSHLAR OBRAZI: “QADRLI YELENA
SERGEYEVNA” SPEKTAKLI MISOLIDA.**

*O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat
Instituti Teatr san‘ati fakulteti
1-bosqich magistranti
Babadjanova Ziyodaxon Murodjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Lyudmila Razumovskayaning «Qadrlı Yelena Sergeyevna» pyesasi asosida sahnalashtirilgan diplom spektaklining badiiy va aktyorlik talqini tahlil qilinadi. Unda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy hamda axloqiy muammolari, shuningdek, yoshlar shaxsini shakllantirish va tarbiya masalalari yoritib beriladi. Spektaklning sahnaviy yechimi, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, dekoratsiya va rejissura jihatlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik drama, aktyorlik mahorati, sahna talqini, tarbiya, obraz, rejissura, teatr san‘ati, dramaturgiya.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная и актерская интерпретация дипломного спектакля, поставленного по пьесе Людмилы Разумовской «Дорогая Елена Сергеевна». В ней освещаются социальные и нравственные проблемы взаимоотношений учителя и учеников, а также вопросы воспитания и формирования личности молодежи. Особое внимание уделяется сценическому решению спектакля, актерскому мастерству, сценической речи, декорациям и режиссуре.

Ключевые слова: психологическая драма, актерское мастерство, сценическая интерпретация, воспитание, образ, режиссура, театральное искусство, драматургия.

Abstract: This article analyzes the artistic and acting interpretation of the graduation performance staged based on Lyudmila Razumovskaya’s play “Dear Elena Sergeevna.” It highlights the social and moral issues in the relationships between teachers and students, as well as the problems of education and the formation of young people’s personalities. Special attention is paid to the stage solution of the performance, acting skills, stage speech, scenography, and directing.

Keywords: psychological drama, acting skills, stage interpretation, education, character, directing, theatre art, dramaturgy.

Ushbu asar 1979-yil yozilgan bo‘lib, ota-ona va farzandlar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bugungi kunimizga ham dolzarb mavzu hisolangan keskin mavzularni yoritib beradigan psixologik drama hisoblanadi. Necha yillardan buyon

davrdan-davrga o'tib kelayotgan jamiyat, oiladagi ta'lim va tarbiya, xususan maktab davridagi o'smirlar obrazi orqali tomoshabinga ma'naviy ozuqa, fikrlashga undaydigan ajoyib asar ekanligiga guvoh bo'ldim. "Aktyorlik mahorati" fani o'qituvchisi - Dilafro'z Tangriyeva, rejissyor yordamchisi - To'yhiboyeva Sarvinoz hamda talabalar, ijodiy guruh bo'lib, yaxshigina mehnat qilganliklari yaqqol namoyon bo'lgan. Asarni kirish qismidan to yakuniga yetgunicha bo'lgan vaqtda barcha aktyor va aktrisarlar birdamlikda aynan o'sha sahnada "yashay olishdi" desam mubolag'a bo'lmaydi. Biz bilamizki, bugungi kundagi sahna yuzini ko'rayotgan hamma asarlar ham tomoshabinni o'rindiqa

"mixlay olmaydi". Ushbu asar esa talabalar ijro etganiga qaramay bundan mustasno - tempo-ritmni saqlay olgan. Qatnashuvchilar: Yelena Sergeyevna rolini - G'aybullayeva Bonu, Usmonova Anora, Volodya rolini - Begjanov Daurenbek, Qo'ldashev Alisher, Pasha - Qo'ldashev Alisher, Begjanov Daurenbek, Vitya - Abdurahmonov Abdulla, Nazarov Aziz, Lyalya - Jo'rayeva Mashxura, Zohidova Sevinch, Hoshimova Mohigul.

Bosh qahramon Yelena Sergeyevna o'zining o'tkir zehni, kasbining halol namoyondasi, haqiqat uchun kurashgan haqiqiy mard ayol ekanligini spektakldagi ijro mahoratidan yaqqol sezishimiz mumkin. Avvaliga o'quvchilari uning tug'ilgan kuni sababi bilangina tashrif buyurishgan deb o'ylab naqadar sevinadi, voqealar rivojida esa ularni asl yuzlari asta sekin ochilib boradi. Dramaturg oddiygina maktab o'quvchilari orqali o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmaydigan, ustoz degan sharaflil kasb egasining o'z xonadonida turli tazyiq va zo'ravinliklarga qo'lganliklarini, inson qo'ldan qanday qabihliklar kelishi mumkinligi ko'rsatib bergan.

Rassom - Alisher To'laboyev dekoratsiya va mizansahnani to'g'ri tanlay olgan. Barcha voqealar bir xonaning ichida ro'y berishiga qaramay, tomoshabinni birdek qiziqтира olgan. Xonadagi shkaf, ichidagi kitob va hujjatlar, stol-stullar yokida magnitafon matematika o'qituvchisiga mos, spektakl muhitini ochishga yanada hissa qo'shgan. Sahnada barcha jihoz hamda kichik elementlargacha aktyor va aktrisarlar spektakl davomida foydalana olishdi. Anton Pavlov Chexovning "Sahnada miltiq bormi, demak otilishi kerak" jumlasini bu yerda ham o'z isbotini topdi. "Sahna nutqi" fani o'qituvchisi - Maxsuma Xodjimatoeva ham talabalar bilan mahoratli shug'ullangan. Jumladan, nutq, so'zlashayotgandagi ohang jarangi, har bir jumla yoki harf "yutib yuborilmasdan" ijro etilgani spektakl davomida o'z isbotini topdi. Xususan bosh qahramon Yelena Sergeyevnani ijro etgan aktrisaning nutq ijro salohiyati fikrimiz isboti bo'la oladi. "Raqs" fani o'qituvchisi - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent - Narziddin Shermatov va raqslarni sahnalashtiruvchi - Narova Komila Sende talabalar bilan yetarlicha faoliyat olib borgan. Har bir raqs ijro etilishi bevosita tomoshabinni sahnaga yanada mahkamroq bog'lanishiga sabab bo'la oldi.

“Guruch kurmaksiz bo‘lmagani” kabi sopektaklda ba’zi bir xato va kamchiliklar topiladi. Bir necha dialoglarda talabalarning jummalarni so‘zlashdagi takrorlab ijro etganini hisoblamasak, sahnadagi ijro etuvchilar professional aktyor - aktrisa emas balki shu darajaga intilayotgan yoshlar ekanligini inobatga olsak, asar o‘z maromiga yetkizilib, sahna yuzini ko‘ra oldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, ushbu spektakl bugungi kunimizdagi dolzarb mavzuni yoritib bera olgan. Jamiyatimizdagi ta’lim - tarbiya eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, yosh avlodlar bizning kelajak poydevorimiz. Shunday ekan, asardagi singari bugungi kunda ham o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan tab tortmaydigan insonlar bo‘lib qolmasligimiz uchun ham har birimiz halollik, yaxshi bilim, kuchli salohiyat, ijobiy fikr va yondashuv qila oladigan komil inson bo‘lib yetishishimiz va shunday avlodlar tarbiya etishimiz kerak bo‘ladi.